

**XALQARO FORUMLAR VA GRANTLAR: YOSHLAR UCHUN
IMKONIYATLAR VA RIVOJLANISH POYDEVORI**

*Guliston davlat pedagogika instituti
O'qituvchisi **Berdiqulova Mahbuba**
Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi
talabasi **Abdurashidova Farangiz**
farangizabdurashidova43@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro forumlar va ta'lim grantlarining yosh avlod kamolotidagi o'rni, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro maydonda munosib ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va grantlarni izlab topish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro forum, grantlar, stipendiya, shaxsiy rivojlanish, networking, global ta'lim, loyihalar.

Аннотация

В данной статье анализируются роль международных форумов и образовательных грантов в развитии молодого поколения, их влияние на личное и профессиональное становление. Также представлены методические рекомендации по поиску грантов и развитию навыков, необходимых для достойного участия на международной арене.

Ключевые слова: международный форум, гранты, стипендия, личное развитие, нетворкинг, глобальное образование, проекты.

Annotation

This article analyzes the role of international forums and educational grants in the development of the younger generation, as well as their impact on personal and professional growth. Furthermore, it provides methodical recommendations for finding grants and developing the necessary skills for meaningful participation in the international arena.

Keywords: international forum, grants, scholarship, personal development, networking, global education, projects.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida yoshlar uchun faqatgina mahalliy ta'lim bilan cheklanib qolish yetarli emas. Zamonaviy dunyo mutaxassisidan global dunyoqarash, xalqaro muloqot qobiliyati va turli madaniyatlar bilan ishlash ko'nikmasini talab qilmoqda. Xalqaro forumlar va ta'lim grantlari aynan mana shunday muhitni shakllantirishda asosiy ko'priq vazifasini o'taydi.

Bir so'z bilan aytganda xalqaro forumlar - bu networking va tajriba maydoni. Xalqaro forumlarda ishtirok etish yoshlarga nafaqat bilim, balki bir umrlik aloqalar (networking) zanjirini taqdim etadi. Bu jarayonda quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

Networking (Aloqalar o'rnatish): Dunyoning turli chekkalaridan kelgan tengdoshlar va soha mutaxassislari bilan tanishish.

Liderlik ko'nikmalari: O'z g'oyalarini xalqaro auditoriya oldida himoya qilish va jamoada ishlash tajribasi.

Madaniyatlararo muloqot: Turli dunyoqarashga ega insonlar bilan muloqot qilish orqali bag'rikenglik (tolerantlik) va moslashuvchanlikni shakllantirish.

Ta'lim grantlari: Orzularni haqiqatga aylantirish

Grantlar – bu talaba yoki yosh tadqiqotchining moliyaviy qiyinchiliklarsiz sifatli ta'lim olishi uchun beriladigan imkoniyatdir.

Grantlar odatda ikki turga bo'linadi:

To'liq grantlar (Full Ride): O'qish puli, yashash xarajatlari va yo'l haqi qoplanadi.

Qisman grantlar (Partial Scholarship): Faqat o'qish pulining ma'lum bir qismi qoplanadi.

Albatta, har bir talaba uchun grand va forumlarda qatnashib unda g'olib bo'lish juda muhim va xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lish uchun nomzoddan quyidagi jihatlar talab etiladi:

Akademik ko'rsatkichlar: Baholar va ilmiy izlanishlar darajasi.

Ijtimoiy faollik: Voluntaryorlik (ko'ngillilik) loyihalari va jamoat ishlaridagi ishtirok.

Motivatsiya xati (Statement of Purpose): Nima uchun aynan siz bu grantga munosib ekanligingizni asoslab beruvchi insho.

Til bilish darajasi: Odatda IELTS yoki TOEFL kabi xalqaro sertifikatlar talab qilinadi.

Quyida talabalar uchun kerakli bo'lgan bir forumdan namuna keltirilgan:

Upward Growth Forum:

Onlayn platformalar orqali global integratsiya

Xalqaro miqyosdagi forumlar nafaqat oflayn, balki raqamli formatda ham yoshlar uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. Bunga misol tariqasida 2026-yil 13-martdan 17-martgacha o'tkazilishi rejalashtirilgan Upward Growth Forumni keltirish mumkin. Ushbu forum birinchi marta ishtirok etayotgan yoshlar uchun quyidagi amaliy ahamiyatga ega:

Profil yaratish: Forumda ishtirok etish kelajakda xalqaro grantlar va nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritish uchun kuchli akademik profil (portfolio) yaratishga xizmat qiladi.

Tayyorgarlik jarayoni: Ishtirokchilardan forum materiallarini oldindan tayyorlash va xalqaro e'longa muvofiq harakat qilish talab etiladi, bu esa loyihalar bilan ishlash ko'nikmasini oshiradi.

Xalqaro muloqot: Forum yoshlarga dunyoqarashini kengaytirish va global masalalarda o'z fikrini bildirish imkonini beradi.

Shuningdek tanganing ikkinchi tarafi ham bor yani grand va forumlardagi mavjud muammolar. Ko'p hollarda yoshlar ma'lumot yetishmasligi yoki o'ziga bo'lgan ishonch pastligi sababli bunday imkoniyatlardan foydalana olmaydilar. Shuningdek, hujjat topshirish jarayonidagi murakkabliklar va vaqtni noto'g'ri taqsimlash ham asosiy to'siqlardan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam xalqaro forumlar va grantlar – bu shunchaki sayohat yoki bepul o'qish emas, balki kelajakdagi katta muvaffaqiyatlar uchun kiritilgan eng foydali investitsiyadir. Yoshlar ushbu platformalardan unumli foydalanish orqali nafaqat o'z shaxsiy manfaatlarini, balki o'z mamlakatining xalqaro maydondagi nufuzini ham yuksaltirishga xizmat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report.
2. Altbach, P. G. (2016). Global Perspectives on Higher Education. Johns Hopkins University Press.
3. Zokirov, M. (2024). Xalqaro ta'lim dasturlari va ularning afzalliklari.
4. "Upward Growth Forum"